

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SVAYKOSOV SAKEN OMAROVICH

**AVTOMOBIL YOQILG'ILARINI DETONATION VA FAZAVIY
BARQARORLIGINI YAXSHILASH UCHUN ETANOL ASOSIDA
QO'NDIRMALAR ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)

Svaykosov Saken Omarovich

Avtomobil yoqilg‘ilarini detonatsion va fazaviy barqarorligini yaxshilash uchun etanol asosida qo‘ndirmalar ishlab chiqish va tadqiq qilish..... 3

Свайкосов Сакен Омарович

Разработка и исследование присадок на основе этанола для улучшения детонационной и фазовой стабильности автомобильного топлива..... 21

Svaykosov Saken Omarovich

Development and research of ethanol-based additives to improve the detonation and phase stability of automotive fuel..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SVAYKOSOV SAKEN OMAROVICH

**AVTOMOBIL YOQILG'ILARINI DETONATSION VA FAZAVIY
BARQARORLIGINI YAXSHILASH UCHUN ETANOL ASOSIDA
QO'NDIRMALAR ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/T2453 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Beradaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ionx@academy.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Muxtor Jamolovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saydaxmedov Shamshidinxo'ja Muxtorovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Kodirov Orifjon Sharipovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024 yil «4» iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 a. Tel.: (+99871)262-56-60, faks: (+99871)262-79-90, e-mail: ionx@academy.uz

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 12 raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77 a. Tel.: (+99871)262-56-60, faks: (+99871)262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «21» mayda tarqatildi.
(2024 yil «21» maydagi № 12 raqamli reestr bayonnomasi).



B.S. Zakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi k.f.d., prof.

D.S. Salikhanova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.d., prof.

I.D. Eshmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda intensiv rivojlanayotgan texnikalar, ularda qo'llaniluvchi neft mahsulotlari, xususan avtomobil benzinlarining fizik-kimyoviy, ekspluatatsion va ekologik xossalariga jiddiy talablarni qo'yimoqda. Bugungi kunda zamonaviy ekologik talablarga javob beruvchi avtomobil benzinlarining assortimentlari kengayib, ularni ishlab chiqarish quvvatlari oshgan bo'lsada, yuqori sifatli benzinlarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Yuqori sifatli avtobenzinlar ishlab chiqarishda, kislorodli birikmalar asosida olinuvchi qo'ndirmalarni ishlab chiqish va ularni avtomobil benzinlariga qo'llash yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda avtomobil benzinlarini detonatsion va fazaviy barqarorligini oshiruvchi qo'ndirmalarni ishlab chiqish, ularni benzinlarni kompaundlash texnologik tizimlariga kiritish va jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Bu borada kislorodli birikmalarining benzinlarning ekspluatatsion, ekologik va fizik-kimyoviy barqarorligini ta'minlovchi qo'ndirmalar paketini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda neft mahsulotlarini, xususan avtomobil benzinlarini ishlab chiqarishda ular tarkibiga kislorodli birikmalarni kiritish va shu orqali ularning fazaviy va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida neft mahsulotlarini fizik-kimyoviy barqarorligini saqlagan holda ularni ekspluatatsion xossalari yaxshilash va ularning resursini oshirish bo'yicha muhim natijalar olingan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish»¹ vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, avtomobil benzinlari uchun kislorodli birikmalar asosida fazaviy va antidetonatsion xossalarini yaxshilovchi qo'ndirmalar ishlab chiqishda, benzin-spirit-suv sistemasining fazaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan, ya'ni ushbu sistemada cho'kma hosil bo'lishi, koagulyatsiya, adgeziya kabi jarayonlarni oldini olishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2016 yil 28 sentyabrdagi PQ-2614-sonli «2016-2020 yillarda uglevodorod xom ashyosini chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3246-sonli «Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «VII. Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Avtomobil benzinlarini fazaviy va detonatsion xossalarini yaxshilovchi qo‘ndirmalar va qo‘shimchalarni olish va ularni avtomobil benzinlariga qo‘llash bo‘yicha jahonda Olivia A. Perederic, Bertram Muchan, R.A. Nowak, S.A. Machado, Barbara J. Finlayson-Pitts, James N. Pitts Jr., Mingsheng Wen, Zenghui Yin, Zunqing Zheng, Haifeng Liu, Chuanqi Zhang, Yanqing Cui, A.A. Ganina, S.G. Dyachkova, G.F. Garifzyanov, S.M. Petrov, I.I. Gussamov, N.Yu. Bashkirtseva va boshqalar, mamlakatimizda esa G.R. Narmetova, B.N. Xamidov, U.K. Axmedov, Sh.M. Saydaxmedov, B.Z. Adizov, M.J. Maxmudov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu olimlar tomonidan avtomobil benzinlarini oktan sonini oshiruvchi qo‘ndirmalar olishda asosan metalloorganik birikmalar va neft fraksiyalaridan olinuvchi yuqori oktanli birikmalarga katta e‘tibor qaratilgan va ular asosida turli qo‘ndirmalar va qo‘shimchalar olish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Biroq, etanol, izobutanol va monometilanilin asosida qo‘ndirmalar olish, ularni benzinlarni nafaqat oktan sonini oshirishga, balki fazaviy barqarorligiga ta‘sirini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot ishi Buxoro muhandislik – texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №40-22 «Ishlatilgan kompressor moylarini mahalliy sorbentlar asosida regeneratsiyalash va GSU qurilmalaridan ajraluvchi gaz kondensatini qayta ishlab avtomobil benzini olish uchun qo‘llash» (2022-2024 yy.) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil yoqilg‘ilarini detonatsion va fazaviy barqarorligini yaxshilash uchun etanol asosida qo‘ndirmalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida ishlab chiqarilayotgan benzinlar va ularning komponent tarkibini aniqlash;

etanol, IB, IP, BTs va MMAning AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlariga qo‘shilganda ularning past haroratlardagi fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish;

etanol va boshqa geteroatomli birikmalar asosida avtomobil benzinlarining fazaviy va detonatsion barqarorligini oshiruvchi qo‘ndirmalar kompozitsiyalarini olish va ularni avtomobil benzinlariga ta‘sirini o‘rganish;

ishlab chiqilgan qo‘ndirmalar va AI-80, AI-92 avtomobil benzinlari asosida yangi tarkibli, fazaviy hamda detonatsion xossalari yangilangan benzinlarni fizik-kimyoviy, ekologik xossalarini tahlil qilish, shuningdek stend sinovlaridan o‘tkazish;

benzinlarni fazaviy va detonatsion xossalarini yaxshilovchi qo‘ndirmalar olish, benzin fraksiyalarining komponentlari va qo‘ndirmalarni kompaundlash texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Buxoro neftni qayta ishlash zavodida O'z DSt 3031:2015 standartlariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlaridan, 90 % li, 92 % li, 96 % li va 99 % li etil spirtlaridan, IP, IB, BTs, MMA olingan.

Tadqiqotning predmetini AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlarini fazaviy va antidetonatsion xossalarini yaxshilovchi qo'ndirmalar olish, ularning benzinlarning oktan soniga va fazaviy barqarorligiga ta'sirini baholash va kompaundlash texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda avtomobil benzinlarini fizik-kimyoviy xossalarini o'rganishga qaratilgan tahlil usullari majmuasidan (Shatox SX-300 qurilmasi, bug'latish usulidan, IPB-1 qurilmasi, MINIVAP VPXpert qurilmasi, TPZ-LAB-12 qurilmasi) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Etil spirti (ES), izopropanol (IP) va monometilanilin (MMA)lardan o'zaro nisbatlari turlicha bo'lgan avtomobil benzinlarini fazaviy va detonatsion xossalarini yaxshilovchi optimal kontsentratsiyaga ega Oktan-S-6 (ES 50%: IB 20%: MMA 30%) yangi tarkibli kompozitsion qo'ndirmalar ishlab chiqilgan;

Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasini mahalliy AI-80 avtomobil benziniga 2 % va AI-92 avtomobil benziniga 0,4 % miqdorda qo'shish orqali AI-95 avtomobil benzinlari olingan va ularning ekologik xossalari yaxshilanishi ilmiy asoslangan;

AI-80 va Oktan-S-6, AI-92 hamda Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini avtomobil dvigatellarida sinab ko'rishda, tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\min} da ajralib chiquvchi uglerod oksidi gazlari birinchi namunada 1,7, ikkinchisida esa 1,4 % ga, uglevodorod bug'lar talab darajasidan dastlabki namunada 1250, keyingisida esa 1155 ppm ga, shuningdek tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\max} da ajralib chiquvchi uglerod oksidi gazlari birinchi namunada 1%, ikkinchi namunada 0,7 % ga, uglevodorod bug'lari talab darajasidan dastlabki namunada 535 ppm, keyingisida 480 ppm ga kamaygani aniqlangan;

Oktan-S-6 va AI-80 benzini asosida olingan benzin namunasida smolalar miqdorining 100 sm³ benzinda 1140 mg dan 980 mg gacha, Oktan-S-6 hamda AI-91 asosida olingan benzin namunasida esa 1170 mg dan 1010 mg gacha kamaygani ilmiy asoslangan;

Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi va mahalliy benzin komponentlari asosida, yuqori oktanli, tarkibida kislorod saqlagan AI-95 avtomobil benzinini olishning kompaundlash texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Etanol, izobutanol va monometilanilin asosida olingan benzinlarni fazaviy va detonatsion barqarorligini oshiruvchi qo'ndirmalar olingan va ularning avtobenzinlarga ta'siri aniqlangan;

Olingan oksigenatlar orasida Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasini AI-80 avtomobil benziniga 2 % va AI-92 avtomobil benziniga 0,4 % miqdorda qo'shish orqali AI-95 avtomobil benzinlari olingan;

AI-80 benzini asosida olingan benzin namunasida smolalar miqdorining 100 sm³ benzinda 980 mg gacha, AI-92 asosida olingan benzin namunasida esa 1010 mg gacha kamaygani bug‘latish usuli yordamida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot ishlari zamonaviy fizik-kimyoviy va ekspluatatsion tahlil usullaridan foydalanilgan holda olib borilgan, laboratoriya va neftni qayta ishlash zavodlarida tajriba-sinovlardan o‘tkazilib, dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtomobil benzinlarini fazaviy va detonatsion barqarorligini oshiruvchi etanol asosida qo‘ndirmalar olishda IB va MMA ni qo‘llash va bu orqali benzin-etanol-suv sistemasining fazaviy barqarorligini ta‘minlash mumkinligi aniqlanib, IB va MMA ning etanol bilan aralastirilib olingan qo‘ndirmaning avtomobil benzinlarini oktan sonini oshirishda etanolga nisbatan, sinergetik effekt hisobiga oshishi ham tadqiqotlar yordamida isbotlandi va bu esa detonatsion va fazaviy barqaror, yuqori oktanli, ekologik toza benzinlarni ishlab chiqarish bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Taylor Dynamometer gaz analizatori yordamida, olingan AI-95 avtomobil benzinalirini yonishidan ajraluvchi gazlar miqdori aniqlandi, AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\min} bo‘lganda uglerod oksidi gazlari 1,8 % va AI-91 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 2,1 %, tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\max} bo‘lganda AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida uglerod oksidi gazlari 1,0 % va AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 1,3 % tashkil etganini ko‘rsatdi. Bu esa bugungi zamonaviy ekologik talablarga to‘liq javob beradigan yoqilg‘i olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtomobil yoqilg‘ilarini detonatsion va fazaviy barqarorligini yaxshilash uchun etanol asosida qo‘ndirmalar ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ES, IB va MMA asosida avtomobil benzinlari uchun antidetonatsion qo‘ndirmalarni ishlab chiqish usuli «Taxiatosh neft bazasi» MChJ Qo‘ng‘iroq filialida amaliyotga joriy qilingan («O‘zbekneftegaz» AJning 2024 yil 12 fevraldagi 03-18-8-133-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, AI-80 benziniga 2% va AI-91 benziniga 0,4 % miqdorda qo‘shib AI-95 avtomobil benzini ishlab chiqish imkonini bergan;

kislorod saqlovchi birikmalar asosida olingan oksigenatli qo‘shimchalar va benzinni kompaundlash texnologiyasi «O‘zneftegazinspektsiya» Buxoro viloyat hududiy bo‘linmasida amaliyotga joriy qilingan («O‘zbekneftegaz» AJning 2024 yil 12 fevraldagi 03-18-8-133-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Oktan-S-6 qo‘ndirmasidan 0,4 % AI-92 benziniga qo‘shish orqali benzinning oktan soni 4,3 punktga ortishi natijasida 95,6 oktan sonli benzin olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta monografiya va O‘zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 98 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari, shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi keltirilgan bo'lib, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari yoritib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Yuqori oktanli avtomobil benzinlari ishlab chiqarishning zamonaviy usullari va etanol asosli qo'ndirmalarni qo'llash tamoyillari»** deb nomlangan birinchi bobida, yuqori oktanli avtomobil benzinlarini ishlab chiqarishning zamonaviy usullari, yuqori oktanli kislorodli birikmalarni olish va ularni avtomobil benzinlariga qo'llash usullari, dunyoda metanol ishlab chiqarish va uni benzina qo'shish yo'nalishlari, izopropanol va butanol ishlab chiqarish va ularni oksigenat sifatida qo'llanilishi, efirlar ishlab chiqarish va ularni oksigenat sifatida qo'llanilishi, etanol ishlab chiqarish va uni avtomobil benzinlari tarkibida qo'llashga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili natijalari asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **«Etanol asosida qo'ndirmalar tadqiq qilish va oksigenatli avtomobil benzinlarini fizik-kimyoviy, ekologik va ekspluatatsion xossalari tahlil qilish usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot ob'ektlari, Shatox SX-300 neft mahsulotlarini sifatini aniqlash qurilmasi yordamida tovar va yangi olingan benzin namunalari oktan sonini aniqlash, bug'latish usulida benzin tarkibidagi smolalar miqdorini aniqlash, IPB-1 qurilmasida avtomobil benzinlarini induktsion davrini aniqlash, avtomobil benzinlarini to'yingan bug' bosimini aniqlash, neft mahsulotlarini TPZ-LAB-12 qurilmasi yordamida xiralaniş va qotish haroratini aniqlash kabi tajriba usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Benzin-etanol kompozitsiyalarini fazaviy barqarorligini oshirishning asosiy ta'moyillari»** deb nomlangan uchinchi bobida etanolning mahalliy avtomobil benzinlarining fazaviy barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish, benzin-etanol kompozitsiyasi fazaviy barqarorligiga MMA, BTs, IP va IBning ta'sirini tadqiq qilish, benzin-etanol kompozitsiyalarini gidrofil-lipofil balansini haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Tadqiqotlarimiz natijalarni tasdiqlash maqsadida, tadqiqotlarimizning birinchi bosqichida mahalliy AI-80 benzining 90, 92, 96 va 99 %li texnik etil spirtlari bilan etanolning kontsentratsiyasi 1-10 % oraliqlardagi olingan BEKlarining xiralanish haroratlarini aniqladik. AI-80 avtomobil benzini va turli kontsentratsiyali etil spirtlari bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari 99 %li etanolni avtomobil benzinigacha 5 % gacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shish mumkinligini ko‘rsatdi (1–rasm).



1–rasm. AI-80 benzinning 99 %li etanol bilan turli kontsentratsiyalardagi olingan BEKlarining xiralanish haroratlari

Tadqiqotlarimizni keyingi bosqichida mahalliy AI-92 avtomobil benzini turli kontsentratsiyali etil spirtlari bilan kompozitsiyalari olindi va ularning xiralanish harorati aniqlandi.


AI-92 benzin bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar ham AI-80 avtomobil benzini bilan o‘tkazilgan tadqiqotlarni natijalari tasdiqladi. Ya’ni, spirt tarkibida suv miqdorining kamayib borishi bilan benzin-etanol kompozitsiyasining xiralanish haroratlari ham yaxshilanib bordi. 2–rasmda 99 %li etil spirtini AI-92 avtomobil benzini bilan kompozitsiyasining xiralanish haroratlari natijalari keltirilgan.



2–rasm. AI-92 benzinning 99 %li etanol bilan turli kontsentratsiyalardagi olingan BEKlarining xiralanish haroratlari

AI-92 avtomobil benziniga 99 %li etil spirti 6 %gacha qo‘shilganda, uning xiralanish harorati o‘zgarmadi, 7 % dan boshlab o‘zgarish kuzatildi. Shuning uchun, benzin-spirt aralashmalarini barqarorlashtiruvchi yoki turli sirt-faol moddalarni qo‘shib ta‘minlash mumkinligini hisobga olgan holda, biz etanolni AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlariga kompozitsiyalar olish uchun ham ushbu kompozitsiya oktan sonini oshiruvchi ham fazaviy barqarorligini yaxshilovchi MMA, BTs, IP va IB qo‘shishni xulosa qildik. AI-80 avtomobil benzini va 10 % 99 %li etanol qo‘shib olingan BEKlarini xiralanish haroratiga IP, IB, BTs va MMA larning 1 % kontsentratsiyadagi ta‘siri natijalari 3–rasmda keltirilgan.


Tadqiqotimiz IB va MMA ni BEKlari uchun barqarorlashtiruvchi sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi.



3–rasm. AI-80 avtomobil benzini va 10 % 99 %li etanol qo‘shib olingan BEKlarini xiralanish haroratiga IP, IB, BTs va MMA larning 1 % kontsentratsiyadagi ta‘siri natijalari


Dissertatsiyaning «Avtomobil yoqilg‘ilarini detonatsion va fazaviy barqarorligini yaxshilash uchun etanol asosida qo‘ndirmalar olish va ularni qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan to‘rtinchi bobida etanolning AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlarining detonatsion barqarorligiga ta‘sirini tadqiq qilish, ES, IB va MMA asosida antidetonatsion kompozitsiyalar olish va ularning avtomobil benzinlarining antidetonatsion va fazaviy barqarorligiga ta‘sirini tadqiq qilish, avtomobil benzini va Oktan-S-6 antidetonatsion qo‘ndirmasi komponentlarini kompaundlab, yuqori oktanli AI-95 avtomobil benzinlari olish texnologiyasini ishlab chiqish, olingan benzin namunalarini stend sinovdan o‘tkazish, Oktan-S-6 qo‘ndirmasini qo‘llab avtomobil benzinlari olishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishimizda avtomobil benzinlarini detonatsion barqarorligiga spirtlarni, xususan etanolning ta‘sirini tadqiq qilishda 99% li etil spirtidan foydalanildi. Etanolning AI-80 benzinining detonatsion barqarorligiga ta‘siri 1-10 kontsentratsiyalarda aniqlandi va olingan natijalar 4–rasmda keltirilgan.



4-rasm. Etil spirtini AI-80 avtomobil benzining detonatsion barqarorligiga ta'siri

Mahalliy AI-80 avtomobil benzini va 99 %li etanol qo'shib olingan BEK namunalari, ular tarkibida etanolning miqdori 1 dan 10 %gacha bo'lganda BEKlarning oktan soni o'rtacha 1,5-3 punkt gacha ko'tarilishini ko'rsatdi. Etanolning ushbu avtomobil benzining oktan sonini oshirish uchun ya'ni AI-95 avtobenzini ishlab chiqarish uchun, uning tarkibiga 10 % etanol qo'shishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida ushbu benzinning qimmatlashuviga olib keladi. Tadqiqotimizning keyingi bosqichida esa mahalliy AI-92 avtobenzining oktan soniga etanolning ta'siri tadqiq etildi va olingan natijalar 5-rasmda berilgan.



5-rasm. Etil spirtini AI-92 avtomobil benzining detonatsion barqarorligiga ta'siri

Etanolning AI-92 avtomobil benzining oktan soniga ta'sirini aniqlash natijalari, 2-3 % etanol qo'shgan holda AI-95 benzinlarini olish imkonini berishini ko'rsatdi. Etanol va mahalliy avtomobil benzinlarini arashatirilib olingan BEKlarini detonatsion barqarorligi sezilarli darajada oshgan bo'lsada, ularning fazaviy barqarorligi benzinlar tarkibiga etanol qo'shilishi bilan past haroratli xossalarni o'zgartirishini inobatga olgan holda, tadqiqotlarimizning keyingi bosqichlarida etanolni IB va MMA turli konsentratsiyalardagi

kompozitsiyalari olindi va ularning mahalliy avtomobil benzinlarining detonatsion va fazaviy barqarorligiga ta'siri tadqiq etildi.

IP va BTs BEKlarning past haroratli xossalriga salbiy ta'sir ko'rsatganligi sababli, ular oksigenat kompozitsiyalari tarkibiga kiritilmadi.

Biz tomonimizdan olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning tarkibi 1-jadvalda keltirilgan. ES, IB va MMA asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalar shartli ravishda Oktan-S deb nomlandi. IB va MMAning BEKlarining detonatsion barqarorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida ularni etanol miqdori bir xil bo'lganda, ular kontsentratsiyalarini turlicha o'zgartirildi.

1-jadval

ES, IB va MMA asosida avtomobil benzinlari uchun olingan oksigenat kompozitsiyalari tarkibi

№	Antidetonatsion kompozitsiyalarning nomlanishi	ES miqdori, %	IB miqdori, %	MMA miqdori, %
1	Oktan-S-1	90	5	5
2	Oktan -S-2	80	10	10
3	Oktan -S-3	70	15	15
4	Oktan -S-4	60	20	20
5	Oktan -S-5	50	25	25
6	Oktan -S-6	50	20	30
7	Oktan -S-7	50	30	20


Biz tomonimizdan olingan Oktan-S tipdagi oksigenat kompozitsiyalarini mahalliy avtomobil benzinlarining oktan soniga ta'sirini o'rganishimiz davomida, tarkibida 50% etanol:20% IB:30% MMA saqlagan Oktan-S-6 oksigenat kompozitsiyasining yuqori natija ko'rsatganini guvohi bo'ldik.

Oktan-S-6 oksigenat kompozitsiyasi mahalliy AI-80 avtomobil benziniga 1 % miqdoda qo'shish orqali AI-92 avtomobil benzini va 2 % qo'shish orqali esa AI-95 yuqori oktanli benzin olish mumkinligi tajribalar natijasida isbotlandi. Oktan-S-6 oksigenat kompozitsiyasi mahalliy AI-92 avtomobil benziniga 1 % miqdorda qo'shilishi bilan uning oktan soni 101,0 puntkgacha oshirganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, mahalliy AI-92 benzini va Oktan-S-6 oksigenat kompozitsiyasi asosida AI-95 yuqori oktanli benzin olish uchun, ushbu qo'ndirmani benzina 0,1 % dan 1 % gacha qo'shib, uning AI-95 uchun kerakli kontsentratsiyasi aniqlandi va olingan natijalar 6-rasmda keltirilgan.

Oktan-S-6 oksigenat kompozitsiyasi mahalliy AI-92 avtomobil benzinining oktan soniga ta'sirini aniqlash natijalari, ushbu antidetonatsion qo'ndirmani 0,4% miqdorda qo'shish orqali AI-95 avtomobil benzini olish mumkinligini ko'rsatdi.

Ushbu o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasini mahalliy avtomobil benzinlarni detonatsion va fazaviy barqarorligini oshirish uchun qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu qo'ndirmani AI-80 benziniga 2 % va AI-92 benziniga 0,4% miqdorda qo'shib, oksigenatli yuqori oktanli, yangi tarkibli AI-95 avtomobil benzinlari olindi va ularning fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari

o'rganildi. Yangi tarkibli oksigenatli benzinlarning xossalari 2-jadvalda keltirilgan.



6–rasm. Oktan-S-6 oksigenatning AI-92 avtomobil benzinining detonatsion barqarorligiga ta'siri

Ushbu olingan yangi tarkibli oksigenatli benzin namunalari mahalliy benzinlarning xossalariidan qisman farq qilishini ko'rsatdi. Jumladan, AI-80 benzini asosida olingan benzin namunasida smolalar miqdorining sezilarli darajada ya'ni 100 sm³ benzinda 980 mg gacha, AI-92 asosida olingan benzin namunasida esa 1010 mg gacha kamayganini ko'rishimiz mumkin va bu esa ushbu benzin namunalariini fazaviy barqarorligini sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Benzinlarda smolalar miqdorining kamayishini Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi tarkibidagi ES, IB va MMAlarning BEKlarini fazaviy barqarorligini oshirishda sirt-faol modda sifatida ta'sir etishi bilan izohlash mumkin.

Sirt-faol moddalarning adsorblanish xususiyatini tavsiflashda ularning sirt-faoligidan tashqari, amalda qo'llanilishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan kattalik–gidrofil-lipofil balans tushunchasi ham kiritilgan (lipofil atamasi lipos-yog' so'zidan kelib chiqqan). SFMning GLB soni modda tarkibidagi qutbli guruhning gidrofil xossalari bilan uglevodorod radikallarining lipofil xossalari orasidagi nisbatni tavsiflaydi.

GLB sonini aniqlash uchun sirt-faol moddalarning mitsellalar hosil qilish xususiyatidan va ularning emulsiyalarni barqarorlash xossalariidan foydalaniladi. Bu o'rinda Griffin usuli eng ko'p qo'llaniladi. Griffin SFMning GLB sonini aniqlash uchun uning moy-suv yoki suv-moy tipidagi barqaror emulsiyalar hosil qila olish qobiliyatini asos qilib oladi. Shartli ravishda GLB kaliy oleat uchun 20 ga, natriy oleat uchun 18 ga, trietanolamin uchun 12 ga, olein kislota uchun 1 ga teng deb qabul qilingan. Emulgatorning ta'sir etish intensivligi GLB soniga

bog'liq. GLB soni 3-6 bo'lgan emulgatorlar ishtirokida S-M (suv-moy) xilidagi emulsiyalar hosil bo'ladi. GLB soni 8-13 bo'lgan emulgatorlar ishtirokida esa, M-S (moy-suv) xilidagi emulsiyalar hosil bo'ladi. Emulgatorlar tabiatini va uning konsentratsiyasini o'zgartirish yo'li bilan S-M xilidagi emulsiyalarni M-S xilidagi emulsiyaga aylantirish mumkin.


2-jadval

AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlari va Oktan-S-6 antidetoantsion qo'ndirmasini asosida olingan AI-95 avtomobil benzinlarining fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xossalari

№	Ko'rsatkichlar	AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini	AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini
1	Rangi	Ravshan sariq, toza, shaffof	Ravshan sariq, toza, shaffof
2	Detonatsion barqarorligi:	O.S.T.U.	95,5
		O.S.M.U.	91,8
3.	20°C zichligi, gr/sm^3	0,771	0,777
4.	Nur sindirish koeffitsenti, n_D^{20}	1,4630	1,4755
5.	Mis plastinkadagi sinov	chidamli	chidamli
6	Suv miqdori	mavjud emas	mavjud emas
7	Mexanik aralashmalar miqdori	mavjud emas	mavjud emas
8	Fraksion tarkibi:		
	Boshlang'ich qaynash harorati, °C	35	37
	haydash oraliqlari, °C:		
	10%	52	54
	50%	105	105
	90%	150	152
	So'nggi qaynash harorati, °C	178	187
	Kolbadagi qoldiq, %	1,5	2,0
	Yo'qotilish, %	3,0	2,8
9	Oltinugurtni massaviy ulushi, %	0,02	0,02
10	Kislotaliligi, 100 sm^3 benzinda KOH mg	2,8	2,7
11	Smolalar miqdori, 100 sm^3/mg	980	1010
12	Uglevodorod tarkibi, % <i>mass.</i> :		
	aromatik uglevodorodlar	47,12	51,45
	<i>n</i> - parafin uglevodorodlar	16,01	13,60
	<i>izo</i> - parafin + naften uglevodorodlar	35,87	34,95
13	To'yingan bug' bosimi, kPa	63,2	64,7
14	Induktsion davri, min. (100°C)	475	481

Avtomobil benzini va Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi komponentlarini kompaundlab, yuqori oktanli AI-95 avtomobil benzini olish texnologiyasini ishlab chiqish

Biz tomonimizdan olingan Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi va mahalliy benzin komponentlari (to'g'ri haydalgan benzin fraktsiyasi va riforming jarayoni katalizati) asosida, yuqori oktanli, tarkibida kislorod saqlagan AI-95 avtomobil benzini olishning kompaundlash texnologiyasi ishlab chiqildi va ushbu texnologik tizim 7–rasmda keltirilgan.



7–rasm. Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi va mahalliy benzin komponentlari (to'g'ri haydalgan benzin fraktsiyasi va riforming jarayoni katalizati) asosida, yuqori oktanli, tarkibida kislorod saqlagan AI-95 avtomobil benzini olishning kompaundlash texnologik sxemasi

A-1 – gorizontall plastinkali aralashtirgich, A-2 – vertikal elektr dvigatel yordamida ishlovchi aralashtirgich, s – sig'implar, v – ventillar, n – dozator nasoslar.

Ushbu taklif etilayotgan kompaundlashning texnologik sxemasi benzin va Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi komponentlarini saqlash sig'implari, ventillar, nasoslar, gorizontall plastinkali aralashtirgich va vertikal elektr dvigatel yordamida ishlovchi aralashtirgichdan tashkil topgan. Benzin va qo'ndirmalar miqdori dozatorli nasoslar yordamida boshqariladi.

Texnologik sxemada Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi komponentlari tegishli nasoslar yordamida kerakli konsentratsiyalarda A-1 gorizontall plastinkali aralashtirgichga beriladi.

Ushbu aralashtirgich bir nechta sektsiyadan iborat bo'lib, etanol, IB va MMA shu sektsiyalardan bir-biri bilan yaxshi aralashishi hisobiga to'liq aralashadi. So'ngra hosil bo'lgan qo'ndirma kerakli miqdorda A-2 aralashtirgichga beriladi va ushbu aralashtirgichni yuqori qismida qo'ndirma va

benzin komponentlarini butun aralastirgich bo‘ylab tarqatishga mo‘ljallangan taqsimlash setkasi o‘rnatilgan bo‘lib, bu tovar benzini komponentlarini o‘zaro aralashishini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu texnologik sxema quvvati A-2 aralastirgichning hajmi va dvigatel quvvatiga qarab o‘zgartilishi mumkin bo‘lib, quvvati 15 m³/soatdan 35 m³/soat oralig‘igacha o‘zgaradi. Ushbu texnologik tizim davriy ishlaydi.

Olingan benzin namunalarini stend sinovdan o‘tkazish

Biz tomonimizdan olingan yangi tarkibli AI-95 avtomobil benzinlarini stend sinovdan o‘tkazish uchun, ularning yonishi natijasida chiquvchi gazlarni tarkibi va miqdori aniqlandi. Benzin namunalarini yonishi natijasida chiquvchi gazlar Taylor Dynamometer gaz analizatori yordamida uglerod oksidlari va uglevodorod gazlari miqdori aniqlandi va olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Benzin dvigatelli avtomobillardan chiquvchi zaharli gazlar tarkibidagi uglerod oksidlari, uglevodorodlarga qo‘yilgan talablar va yangi benzin namunalarini qo‘llab olingan natijalar

Avtomobil komplektatsiyasi	Tirsakli valni aylanish chastotasi	Qo‘yilgan talablar		AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini		AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini	
		Uglerod oksidlari, %	Uglevodorodlar, mln ⁻¹	Uglerod oksidlari, %	Uglevodorodlar, mln ⁻¹	Uglerod oksidlari, %	Uglevodorodlar, mln ⁻¹
Zaharli gazlarni neytrallash qurilmasi bilan jihozlanmagan avtomobil (Gentra)	n_{min}	3,5	2500	1,8	1250	2,1	1345
	n_{maks}	2,0	1000	1,0	465	1,3	520

O‘tkazilgan stend sinovi natijalarida AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini qaraganda yaxshiroq natija ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin. Buni past oktanli avtomobil benzini takribiga kislorod saqlagan antidetonatsion qo‘ndirmaning ko‘proq qo‘shilganligi va benzin-havo yonuvchi aralashma tarkibida kislorodning

mavjudligi sababli, ushbu benzin namunalarda to‘liq yonish jarayoni yaxshiroq borgani bilan tushuntirish mumkin.

Taylor Dynamometer gaz analizatori yordamida o‘tkazilgan stend sinov natijalari AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\min} bo‘lganda uglerod oksidi gazlari 1,8 % va AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 2,1 %, AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\max} bo‘lganda uglerod oksidi gazlari 1,0 % va AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 1,3 % tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Uglevodorod gazlari esa AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\min} bo‘lganda uglerod gazlari 1250 ppm va AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 1345 ppm, AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini tirsakli valni aylanish chastotasi n_{\max} bo‘lganda uglerod gazlari 465 ppm va AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzinida 520 ppm ni tashkil etdi.

Oktan-S-6 qo‘ndirmasini tannarxini va uni qo‘llab avtomobil benzinlari olishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash

Oktan-S-6 kompozitsion qo‘ndirmasini ishlab chiqarishda sarflanadigan xarajatlar 4–jadvalda keltirilgan. 4-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin, 10 ml Oktan–S–6 kompozitsion qo‘ndirmasini olishimiz uchun **171,55** so‘m sarflanar ekan.

4–jadval

Oktan-S-6 kompozitsion qo‘ndirmasini ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi xarajatlar

№	Kerakli moddalar va xizmat ko‘rsatish	Ishlab chiqaruvchi	Miqdori, ml	Xarajatlar, so‘m
1	Etanol	AYO Chemicals PTY LTD (Rossiya)	5	82
2	Izobutanol	Ximabsolyut (Rossiya)	3	42,75
3	MMA	BRONT OOO (Rossiya)	2	46,8
Jami:			10	171,55

AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlari hamda Oktan-S-6 antidetonatsion qo‘ndirmasi asosida olinuvchi AI-95 avtomobil benzinlariga sarflanuvchi xarajatlar 5–jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan jadvallardan ko‘rinib turibdiki, AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini olish uchun jami 5929,1 so‘mni tashkil etdi va ushbu summani sotuvdagi AI-95 benzini narxidan ajratilsa, iqtisodiy daromad quyidagini tashkil etadi: $10000-5929,1 = 4070,9$ so‘m. Agarda AI-95 benzini AI-92 benzini komponentlari asosida olinsa, u holdagi iqtisodiy samaradorlik quyidagini tashkil etadi: $10000-7841,08 = 2158,92$ so‘m. Ushbu olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, AI-80 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini olinganda 4070,9 so‘m, AI-92 va Oktan-S-6 asosida olingan AI-95 benzini ishlab chiqarilganda esa 2158,92 har bir litr benzindan iqtisodiy samara olinadi.

O‘tkazilgan stentd sinovlari va iqtisodiy samaradorlik natijalaridan, AI-80 benzini asosida olingan AI-95 avtomobil benzini yuqori ekologik tozalikka va ko‘proq iqtisodiy samaradorligini ham ko‘rishimiz mumkin. Buni AI-92 avtomobil benzini tarkibida katalitik riforming katalizati miqdorining ko‘pligi bilan tushuntirish mumkin.

5–jadval

AI-80 va AI-92 benzinlariga oksignatlarni qo‘shib AI-95 benzini ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi

№	Kerakli moddalar va xizmat ko‘rsatish	Ishlab chiqaruvchi	Miqdori, ml	Xarajatlar, so‘m
1	AI-80 benzini	BNQIZ, FNQIZ	980	5586
2	Etanol	AYO Chemicals PTY LTD (Rossiya)	10	164
3	Izobutanol	Ximabsolyut (Rossiya)	6	85,5
4	MMA	BRONT OOO (Rossiya)	4	93,6
Jami:			1000	5929,1
1	AI-92 benzini	BNQIZ, FNQIZ	996	7768,8
2	Etanol	AYO Chemicals PTY LTD (Rossiya)	2	32,8
3	Izobutanol	Ximabsolyut (Rossiya)	0,8	11,4
4	MMA	BRONT OOO (Rossiya)	1,2	28,08
Jami:			1000	7841,08

**Izoh: Ushbu yuqoridagi ma‘lumotlar 06.05.2023 yildagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblangan. AI-80 benzini – 5700 so‘m, AI-92 benzini – 7800 so‘m, AI-95 benzini – 10000 so‘m, 1 litr 99% etil spirti – 27268,56 so‘m; 1 litr IB – 14300 so‘m; 1 litr MMA – 23400 so‘m.*

XULOSA

1. Mahalliy AI-80 va AI-92 avtomobil benzinlarining 90, 92, 96 va 99 %li texnik etil spirtlari bilan etanolning konsentratsiyasi 1-10 % oraliqlardagi BEKlari olindi va ularning xiralanish haroratlarini tadqiq qilindi. Natijada etanol tarkibida suv miqdorining kamayishi bilan BEKlarining xiralanish harotlari yaxshilanib borishini tajribalar yordamida isbotlandi.

2. AI-80 avtomobil benzini va 10 % miqdorda 99 %li etanol qo'shib olingan BEKlarini xiralanish haroratiga IP, IB, BTs va MMA larning 1 % kontsentratsiyadagi ta'siri aniqlandi va tadqiqot natijalari IB va MMA ni BEKlari uchun barqarorlashtiruvchi sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatdi.

3. ES, IB va MMA o'zaro nisbatlari turlicha bo'lgan (Oktan-S-1=ES:IB:MMA=90:5:5; Oktan-S-2=ES:IB:MMA=80:10:10; Oktan-S-3=ES:IB:MMA=70:15:15; Oktan-S-4=ES:IB:MMA=60:20:20; Oktan-S-5=ES:IB:MMA=50:25:25; Oktan-S-6=ES:IB:MMA=50:20:30; Oktan-S-7=ES:IB:MMA=50:20:30) avtomobil benzinlari uchun antidetonatsion kompozitsiyalari olindi va ularning avtobenzinlarning detonatsion barqarorligiga ta'siri aniqlandi.

4. Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasini mahalliy AI-80 avtomobil benziniga 2 % va AI-92 avtomobil benziniga 0,4 % miqdorda qo'shish orqali AI-95 avtomobil benzinlari olindi va ularning fizik-kimyoviy xossalari aniqlandi.

5. Oktan-S-6 qo'ndirmasi bilan ishlov berilgan AI-80 benzini namunasida smolalar miqdorining 980 mg/100 sm³ gacha, AI-92 benzin namunasida esa 1010 mg/100 sm³ gacha kamayishi benzin namunalari xossalari tahlil qilish natijasida aniqlandi.

6. Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi va mahalliy benzin komponentlari (to'g'ri haydalgan benzin fraktsiyasi va riforming jarayoni katalizati) asosida, yuqori oktanli, tarkibida kislorod saqlagan AI-95 avtomobil benzinini olishning kompaundlash texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

7. AI-80 benzini va Oktan-S-6 antidetonatsion qo'ndirmasi asosida 1 litr AI-95 benzin ishlab chiqarish uchun jami xarajatlar 5929,1 so'mni tashkil qiladi, bu esa 4070,9 so'm miqdorda iqtisodiy samoradorlikni taminlashi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02.30.12.2019.К/Т35.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

СВАЙКОСОВ САКЕН ОМАРОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИСАДОК НА ОСНОВЕ
ЭТАНОЛА ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ДЕТОНАЦИОННОЙ И ФАЗОВОЙ
СТАБИЛЬНОСТИ АВТОМОБИЛЬНОГО ТОПЛИВА**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистана за номером B2021.4.PhD/T2453.

Диссертационная работа выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (ionx@academy.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNeb» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Махмудов Мухтор Жамолович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Сайдахмедов Шамшидинхужа Мухторович
доктор технических наук, доцент
Кодиров Орифжон Шарипович
кандидат химических наук, доцент

Ведущая организация: Наманганский инженерно-технологический институт

Защита диссертации состоится в «4» июня 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.02.30.12.2019.K/T35.01 при Институте Общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77 а. Тел.: (+99871)262-56-60, факс: (+99871)262-79-90, e-mail: ionx@academy.uz

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института Общей и неорганической химии за № 12 которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77 а). Тел.: (+99871)262-56-60; факс: (+99871)262-79-90,

Автореферат диссертации разослан «21» мая 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № 12 от «21» мая 2024 года.)



Закиров Б.С.
Председатель научного совета по
присуждению ученой степени, д.т.н.,
профессор

Салиханова Д.С.
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученой степени, д.т.н.,
профессор

Эшметов И.Д.
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире интенсивно развивающиеся техники предъявляют серьезные требования к физико-химическим, эксплуатационным и экологическим свойствам применяемых в них нефтепродуктов, в частности автомобильных бензинов. На сегодня, несмотря на расширение ассортимента современных экологически чистых автомобильных бензинов и увеличение их производственных мощностей, спрос на качественные бензины растет день от дня. В производстве качественных автобензинов особое значение приобретают научные исследования в направлении разработки экстрагируемых присадок на основе кислородсодержащих соединений и их применения в автомобильных бензинах.

В мире быстрыми темпами ведутся научно-исследовательские работы по разработке противодетонационных и фазовых стабилизаторов автомобильных бензинов, внедрению их в технологические системы компаундирования бензинов и оптимизации процессов. В связи с этим особое внимание уделяется разработке пакета присадок кислородсодержащих соединений, обеспечивающих эксплуатационную, экологическую и физико-химическую стабильность бензинов.

В нашей республике при производстве нефтепродуктов, в частности автомобильных бензинов, достигаются научные и практические результаты, направленные на внедрение в их состав кислородсодержащих соединений и тем самым улучшению их фазовых и эксплуатационных свойств. На основе мер, реализованных в данном направлении, получены важные результаты по улучшению эксплуатационных свойств нефтепродуктов и увеличению их ресурса при сохранении физико-химической стабильности. В стратегии развития Нового Узбекистана поставлена цель «Широкого внедрения инноваций в экономику, развития кооперационных связей промышленных предприятий и научных учреждений»². В связи с этим, важное значение приобретают научные исследования по разработке присадок на основе кислородсодержащих соединений для автомобильных бензинов, улучшающих их фазовые и антидетонационные свойства, направленных на повышение фазовой устойчивости бензина и системы водного спирта, то есть на предотвращение таких процессов, как осаждение, коагуляция, адгезия в этой системе.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 28 сентября 2016 года № ПП-2614 «О мерах по стимулированию производства экспортно-ориентированной готовой продукции на основе глубокой переработки углеводородного сырья в 2016-2020 годах о мерах по

Указ Президента Республики Узбекистан от 28-января 2022 года № ПФ-60 "О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы"

увеличению» и ПК-3246 от 29 августа «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности организаций химической промышленности» а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

